



DIZARTRIYALI BOLALARDA TOVUSHLAR TALAFFUZIDAGI
KAMCHILIKLARNI O'YIN TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA SHAKLLANISHINI
EKSPERIMENTAL O'RGANISH.

Ayupova M.Y

O'zMPU logopediya kafedrasi professori

Toshmurodova Lola Qayumqizi

O'zMPU logopediya mutaxassisligi 2- kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada dizartriya bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni o'yin texnologiyalari asosida shakllantirish jarayonini eksperimental jihatdan o'rganishga bag'ishlangan. Dizartriya bolalarda tovushlar talaffuzini shakllantirish va takomillashtirishda o'yin texnologiyalarining logopedik ta'sir mexanizmlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Nutq nuqsoni, dizartriya, tovush, talaffuz, nutqiy nafas, o'yin texnologiyalari

Annotation: This article is devoted to the experimental study of the process of developing correct sound pronunciation in children with dysarthria based on game-based technologies. The speech therapy impact mechanisms of game-based technologies in the formation and improvement of sound pronunciation in children with dysarthria are substantiated from scientific-theoretical and practical perspectives.

Keywords: Speech disorder, dysarthria, sound, pronunciation, speech breathing, game-based technologies.

Аннотация: Данная статья посвящена экспериментальному изучению процесса формирования правильного звукопроизношения у детей с дизартрией на основе игровых технологий. В работе научно-теоретически и практически обоснованы механизмы логопедического воздействия игровых технологий в формировании и совершенствовании звукопроизношения у детей с дизартрией.

Ключевые слова: Речевые нарушения, дизартрия, звук, произношение, речевое дыхание, игровые технологии.

Bolalar nutqining ontogenezi - bu kattalar va bola o'rtasidagi muloqot jarayonining murakkab o'zaro ta'siri, bosqichma-bosqich rivojlanib, asta-sekin murakkablashib, takomillashib boruvchi jarayon.

Ontogenezda nutq nafaqat faoliyat va atrofdagi dunyoni bilish vositasi, balki bolaning faol kognitiv faoliyatining natijasidir va oxir-oqibat ikkinchisiga bog'liqdir.

Ushbu bosqichda nutqning motorli ko'nikmalarini shakllantirish har doim ham muayyan bosqichlarda davom etmaydi, qisqa muddatli kechikishlar va hatto pasayish sodir bo'lishi mumkin. Binobarin, nutq faoliyatining shakllanishi asta-sekin yaratiladi va rivojlanishning bir necha bosqichlarida sodir bo'ladi.

"Yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi bo'yicha, bolalar o'zlarining hozirgi bilim va ko'nikmalaridan yuqoriroq darajaga o'yinlar va ijtimoiy o'zaro ta'sir orqali erishadilar. O'yin texnologiyalari shu zonalarni faollashtirishga yordam beradi. bolalar o'yinlar orqali



dunyoni anglash va uni o'zlashtirish jarayonida faol ishtirok etadilar. Bu ularning nutqiy qobiliyatlarini ham shakllantirishga yordam beradi.

Dizartriya o'yinlar juda katta ahamiyatga ega, chunki ular orqali bolalar nutq apparatini rivojlantirish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, nafasni boshqarish, motorik harakatlarni mustahkamlash va eshitish faoliyatini yaxshilash imkoniga ega bo'ladi.

Quyida o'yinlarning dizartriya davolashdagi asosiy ahamiyat jihatlari keltirilgan: Nutq apparatini faollashtirish Dizartriya bolalarda til, lab, jag' mushaklarining zaifligi bo'ladi. O'yinlar orqali bu mushaklar qiziqarli tarzda ishlatiladi, masalan, tilni aylantirish, labni cho'zish, tovushlar chiqarish — bular barchasi terapevtik mashqlarga aylanadi.

Harakat-motor faoliyatini yaxshilash- Ko'plab o'yinlar mayda va yirik motorikani faollashtiradi (masalan, shamni puflash, til bilan "bo'yash", og'iz ichida harakat qilish). Bu esa talaffuz qilishda ishtirok etadigan mushaklarning muvofiqligini oshiradi. Bu o'yinlarga misollar:

Lablar uchun o'yinlar

1. "Quyosh va bulut"

- Maqsad: Lablarning harakatchanligini oshirish

- Usul:

- "Quyosh" - lablarni keng kulumsirab ochish (5 soniya ushlab turish)

- "Bulut" - lablarni "tuyib" yopish (3 marta takrorlash)

2. "Xandon"

- Lablarni cho'zib trubka shaklida ushlab

- Qo'shimcha: "Gulxan" - lablarni tez ochib-yopish ("alanga" effekti)

Til uchun o'yinlar

1. "Chumoli"

- Tilni pastki tishlar ustiga qo'yib, "chumoli tishlarni hisoblaydi"

- Variant: Til bilan lab burchaklariga tegish (chap-o'ng)

Jag' uchun mashqlar

1. "Yong'oq maydalash"

- Jag'ni chap-o'ng harakatlantirish (og'iz yopiq holda)

- Ovoz effekti: "Krr-krr" tovushi bilan

2. "Qushcha och och"

- Jag'ni sekin ochib (5 soniya), yopib (3 soniya)

- Qo'shimcha: Og'iz ochiq holida "Aaa" deb qichqirish

Nafas o'yinlari

1. "Parda chayqaladi"

- Lablarni "Brrrr..." deb titratish (uzluksiz 7-10 soniya)

- Rivojlanishi: "Moshina dvigateli" o'yini (qisqa-keskin "Br-br-br")

2. "Soat chalinadi"

- "Tik-tak" deganida chap-o'ng lab burchaklariga til tegizish

- Nafas nazorati: "Tik" - nafas olish, "Tak" - nafas chiqarish

Kompleks o'yinlar

1. "Komil to'ti"

3 bosqichli mashq:



1. Lablar: "O" shaklida ("To'ti tumshug'i")
2. Til: Oldinga cho'zilgan holda tebranish
3. Nafas: "Ko'p-kop" deganida qisqa nafaslar Ketma-ketlik prinsipi:
Lab → Til → Jag' → Nafas → Kompleks

2. Vaqt chegarasi:

- Har bir o'yin 2-3 minutdan
- Kuniga umumiy 10-12 minut

3. Vizual qo'llanma:

- "Tilim - mening jismonim" posteridan foydalanish
- O'yinlarni qo'g'irchoq yordamida namoyish qilish
- "Kim qanday ovoz chiqaradi?"

Maqsad: Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni mashq qilish.

O'yin: Hayvonlar rasmlari yoki o'yinchoqlari ko'rsatiladi. Bola ularning ovozini taqlid qiladi:

Sigir – "muu-muu",

It – "vov-vov",

Mushuk – "miyav".

Bu o'yin orqali lab, til va og'iz mushaklari harakatini kuchaytirish mumkin.

O'yinlar orqali ta'lim berishda interfaol usullar qo'llaniladi, bu esa bolalarning nutqiy kamchiliklarini bartaraf etishda samarali hisoblanadi.

Masalan, ovozli o'yinlar, interfaol dasturlar va multimedia vositalari bolalarga tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatishda yordam beradi.

- O'yinlar orqali bolalarga individual yondashuvni ta'minlash mumkin, ya'ni har bir bola o'z darajasiga mos holda o'rganishi mumkin.

- Logopedik jarayonida o'yinlar bolalarning nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

O'yinlar orqali ularga tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va nutqiy ko'nikmalarni mustahkamlash imkoniyati beriladi.

- O'yinlar orqali bolalarning eshitish, talaffuz qilish va nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar samaraliroq natijalar beradi.

Ijtimoiy va kommunikativ jihatlar

- O'yinlar orqali bolalar bir-birlari bilan muloqot qilish, guruhda ishlash va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ularning nutqiy qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

- O'yinlar orqali bolalarga tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish jarayoni ularning ijtimoiy moslashuvini oshirishga ham yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, dizartriya bolalarda tovush talaffuzi bilan bog'liq kamchiliklarni bartaraf etishda o'yin texnologiyalarini qo'llash: dizartriya bolalarda artikulyatsiya apparatini faollashtirishga, nafas va tovush chiqarishni muvofiqlashtirishga, fonematik eshituvni rivojlantirishga, eng muhimi, bolada ijobiy emotsional fon yaratib, mashqlarga qiziqish uyg'otishga xizmat qiladi.

Shuningdek logopedik darslar samaradorligini oshiradi, muloqotga qiziqishni oshiradi darslarni quvonchli, ijodiy va do'stona muhitda olib borishiga yordam beradi.



1. Hamidova S.U. Til orqa tovushlarni nutqga qo'yish, mustahkamlash va farqlashga oid o'yinlar/ J. Zamonaviy fan va ta'lim-tarbiya: muammo, yechim, natija" Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy online konferensiya materiallari. - № 3. Fan va ta'lim MChJ noshirlik xizmati nashryoti-2021-yil.
2. Nasriddinova N. A Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini ona tili va o'qish savodxonligi darslarida turli metod va didaktik o'yinlardan foydalangan xolda rivojlantirish/ J.Ta'lim fidoiylari. (Respublika ilmiy- uslubiy jurnal barcha sohalar bo'yicha.- 2023
3. R. Shomahmudova. To'g'ri talaffuzga o'rgatish va nutq o'stirish. -T.: "O'qituvchi" 2001
4. Л.С.Волковой С.Н.Шаховской "Логопедия" Масква Гуманитарный издательский центр 2003
5. Е.Ф. Архипова Коррекционно логопедическая работа по преодолению стертой дизартрии "Астрель" 2008